

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021. P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAPAROV MUROD YULDASHOVICH

**KUBROVIYA TARIQATIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASINING
PSIXOLOGIK TALQINI**

**19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs
psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Saparov Murod Yuldashovich

Kubroviya tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik
talqini.....3

Сапаров Мурод Юлдашович

Психологическая интерпритация понятия идеального человека в
Кубровия.....22

Saparov Murod Yuldashovich

The psychological interpretation of the concept of a perfect man in the
Kubrawiya order.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ
List of publications.....47

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAPAROV MUROD YULDASHOVICH

**KUBROVIYA TARIQATIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASINING
PSIXOLOGIK TALQINI**

**19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs
psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/P566 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (Psi-ik.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.Ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**
Pedagogika va psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Umarov Baxriddin Mengbayevich,**
Psixologiya fanlari doktori, professor

Xolnazarova Matluba Xolbutayevna
Psixologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» _____da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori(DSc), dotsent

N.B.Atabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori(DSc), dotsent

Z.T.Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan turli xil ijtimoiy voqealiklar o'zaro bir-biri bilan uyg'unlashgan jarayonlarni qit'alar, mamlakatlar, etnoslar taqdirida integrativ ahamiyat kasb etib, alohida shaxs, real guruh muammolarini umuminsoniy sifat tariqasida gavdalantirishga e'tiborni kuchaytiradi. Har qanday ta'limot bugungi kunda butun dunyo bo'ylab tobora inson komillikga erishiga qaratilgan milliy ta'lim siyosatini ishlab chiquvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. YUNESKOning ta'lim bo'yicha har chorakda chop etiladigan 140 ga yaqin davlatda "Perspektivalar" va "Ta'lim va din" nomli diniy fanlarni o'qitish dasturlarini tahlil qilganda insonni komillik sari tarbiyalash ahamiyatli masalalar sifatida belgilangan¹. Bu borada YUNESKOning fan va texnologiya bioetikasi asosida yoshlar axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga oid tadqiqotida "talaba yoshlarda aqliy yaxlitlik, inson qadr-qimmat, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari va unga axloqiy yondashuvlar bo'yicha global standartni ishlab chiqish"², dolzarb vazifa etib belgilanganligi uning ustuvor ekanligini ko'rsatadi hamda mazkur muammo bo'yicha tadqiqot olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida, inson rivojlanishiga yo'naltirilgan islomiy ta'limotlardan foydalanish psixotexnikasining konteksti, ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik, qo'lyozma hamda ilmiy ta'limotlarga murojaat qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Sohada ijtimoiy qiymatga, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-psixologik, umumpsixologik, etnopsixologik hodisalarni o'tmish qadriyatlari bilan hozirgi davrni uyg'unlashtirishga, ajdodlar bilan avlodlar o'rtasida vorislikni o'rnatish, ma'naviy ta'limotlar asosida yoshlar psixologiyasida komil insonni tarkib toptirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda Najmiddin Kubro hayoti, tariqati borasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsada, bugungacha uning tasavvufiy qarashlarining psixologik jihatlari borasida muayyan bir tadqiqot amalga oshirilmagan. O'rta Osiyo zaminida vujudga kelib, dunyoning turli o'lkalariga keng yoyilishiga qaramasdan bugungi kungacha Kubroviya tariqati to'liq o'rganilmagan. Najmiddin Kubro ilm talabidagi favqulodda g'ayrati va qat'iyati, Haq yo'lidagi shijoati va vatanparvarligi, jo'mardligi bilan butun dunyoga o'rnak bo'lgan buyuk shaxs hisoblanadi. Shu sababli ham uning hayot yo'li va ma'naviy merosini har tomonlama tadqiq etish lozim. Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan quyidagi masalaga alohida urg'u berib o'tilgan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi,

¹ <http://www.ibe.unesco.org>

² Report of the International Bioethics Committee of UNESCO (IBC) on the ethical issues of neurotechnology. Read the news published by the International Bioethics Committee of Unesco (IBC) on 15 December 2021. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000378724>

baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”³.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi O‘RQ-699-son “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvadagi PF - 60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallanan 73maqsadda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-son “Diniy – ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PQ 2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995 son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tasavvufning buyuk namoyondasi Najmiddin Kubroning hayoti va ijodi, tariqati jahon olimlari tomonidan XX asrning qariyb ikkinchi choragidan e‘tiboran izchil tadqiq etib kelinmoqda. Shu paytgacha yurtimizda so‘fiylik ta‘limotining gnesologiyasi, femnologiyasi va tarixiy-psixologik jihatlarini Matnazar Abdulhakim, Bo‘rivoy Ahmedov, Sadridin Salim Buxoriy, Xurshid Davron, N.Komilov, Elyor Karimov, Muqimjon Mahmud, M.F Norova, G.N.Navro‘zova, K.Rahimov, R.Samarov, R.Shodiyev, G.Yunusova, Homidjon Homidiy, kabi mualliflar ayrim tadqiqotlarni amalga oshirgan. H.Alimov, H.Aliqulov, Q.Bo‘ronov, A.Sh.Juzjoniy, S.Ismoilov, Z.Ishoqova, N.Komilov, G.Navruzova, R.Nosirov, B.Ochilova, M.Oripov, O.Safarboev, I.Haqqul, R.Shodiev, O.Sharipova, M.Qodirov, E.Zoirov, M.Xolnazarova va boshqalar ilmiy tadqiq etganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan: E.Z.Gagiyeva, R.X. Kalimullin, A. Muhammedxodjayev, F. Meyer, M.Mole, U.S.Vildanov, Martin Van, M.Ali Al-Hashimi, R.R.Shangarayev, kabilar Kubroviya tariqatining psixologik jihatlariga

³ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” - .Т. 2016. -Б.16.

e'tibor qaratishgan va uning ilmiy merosi to'g'risida psixologik izlanishlar olib borishgan.

Xorij mamlakatlarida Islom va tasavvuf psixologiyasini E.E.Bertels, M.Badri, M.H.Bursaviy, Asad Jo'shon, Moxir Izz, A.D.Knits, K.Makrey, F.Mayer, M.Moul, Dj.S.Trimingem, Usmon Turar, M.S.Peck, Devin De-Viz, Yu.Zaydon, va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Bundan tashqari, turkiy olimlardan: C.Go'kbulut, M.R.Isfandiyor, Mehmet Okuyan, A.Paketchi, S.Uludog' kabilar Kubroviya tariqatidagi nafsni yengib o'tish bosqichlarini diniy-psixologik nuqtai-nazardan tadqiq etganlar. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq, mazkur tadqiqot ishimiz Kubroviya tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik talqinini talaba yoshlar misolida o'rganilganligi bilan farqlanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetining "Zamonaviy psixologiyaning ilmiy-amaliy dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishining ustuvor vazifalari bilan uzviy bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi Najmiddin Kubro ta'limotida (Kubroviya tariqatida) komil inson konsepsiyasining psixologik g'oyalarni mohiyatini ochib berish orqali uning shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

barkamol shaxsni baholashning faktorli differensiasiyasi mezonlari va sifatlarini shaxs yo'nalganligiga integrativ rivojlanish hamda umumpsixologik g'oyalarni shaxs psixik taraqqiyoti qonuniyatlariga simbiozlash;

shaxsdagi axloqiy ong, axloqiy his, axloqiy tafakkurni hamda o'zini nazorat qila olish bilan bog'liq subyektiv omillarning autoidentifikatsiyasini va talabalarning ma'naviy ehtiyojlarini dalillash;

komil inson haqidagi g'oyalarning talabalar shaxs xususiyatlarini shakllanishiga ta'siri natijasida vaziyatni autent baholash, ijtimoiy integrativ sifatlarining yuqori darajada rivojlanishini isbotlash;

komil insonga xos sifatlar shakllanishida ma'lum bir vaziyatlarni yengib o'tuvchi xulq va emotsiyalarni nazorat qilishni aniqlashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetlarida tahsil oluvchi yuqori bosqich talabalar tanlab olingan. Jami respondentlar 335 nafarni tashkil etgan.

Tadqiqotning predmeti Najmiddin Kubroning tasavvufiy merosining komil insonni tarbiyalashdagi mohiyatini va ularni takomillashtirish xususiyatlarini tashkil etish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, Najmiddin Kubro (Kubroviya) tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik talqinini o'rganish uchun E.G'.G'oziyevning "Barkamol shaxsni baholash" testi, T.D.Dubovskayaning "Vaziyatlarni yengib

o'tish" so'rovnomasi, mualliflik asosida ishlab chiqilgan "Kubroviya tariqati ta'limoti asosida shaxs kamolotini belgilovchi psixologik kontseptlar haqida tasavvurga egalikni aniqlash" so'rovnomalaridan foydalanilgan. Matematik-statistik mezonlari asosida K.Pirson korrelyatsiya koeffetsienti, foizli tahlil va faktorli analizlardan ham foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

barkamol shaxsni baholashning faktorli differensiatsiyasi mezonlari vatanparvarlik, haqgo'ylik, adolatlilik, beg'arazlik, sobitqadamlilik sifatlarini shaxs yo'nalganligiga integrativ rivojlanishi tufayli Kubroviya tariqatidagi umumpsixologik g'oyalarni shaxs psixik taraqqiyoti qonuniyatlariga simbiozlash asosida dalillangan;

shaxsdagi axloqiy ong, axloqiy his, axloqiy tafakkurni psixik taraqqiyotdagi genezisiga ko'ra talabalar o'quv faoliyatidagi ijtimoiy vaziyatlar, topshiriqlarni o'zlashtirishida yuqori harakatchanlik, sinchkovlik, zukkolik hamda o'zini nazorat qila olish bilan bog'liq sub'yektiv omillarning autoidentifikatsiyada ustuvor xarakterga ega ekanligi tufayli talabalarning ma'naviy ehtiyojlarini psixologik talqin qilish jihatlari dalillangan;

komil inson haqidagi g'oyalarning talabalar shaxs xususiyatlarini shakllanishiga ta'siri natijasida milliy g'oya va mafkuraga sadoqatlilik, nutqiy qobiliyatlilik, vaqtni va vaziyatni chamalashdagi mantiqiylik, vaziyatni autent baholash, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivining kuchliligini xulq-atvor kostruktlarida madaniy strategiyalarga simbioz namoyon bo'lishi tufayli ijtimoiy integrativ sifatlarining yuqori darajada rivojlanganligi isbotlangan;

komil insonga xos sifatlar shakllanishida ma'lum bir vaziyatlarni engib o'tuvchi xulq ya'ni matonat, taqdirga ishonch, o'z ustida ishlash xususiyatlarini milliy o'zlikni anglashga integrativ rivojlanishi muhimligi tufayli ijobiy tafakkur va emotsiyalarni nazorat qilish bilan bog'liq sub'ektiv omillar ijobiy ravishda ta'sir etishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kubroviya tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik talqini bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida talaba yoshlarning o'quv faoliyatiga samarali natijalarga erishish orqali komil insonga xos diniy yo'nalganlikning psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir metodik ta'minot amaliyotga olib chiqilgan;

Kubroviya tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik talqini asosida talaba yoshlarni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalashda komillikning tutgan o'rnini aniqlash orqali, ular da shaxs ma'naviy xususiyatlarining muhim jihatlari aniqlangan;

Kubroviya tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik talqini bo'yicha talaba yoshlarning o'quv faoliyati jarayonida komil insonni shakllantiruvchi psixologik xususiyatlarni tekshiruvchi psixodiagnostik tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan va uni amaliy faoliyatda qo'llash uchun taklif-tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishi jarayonida qoʻllanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi va toʻplangan maʼlumotlarning ishonchliligi, olingan amaliy natijalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, jahon psixologiyasida tajribalardan koʻp marotaba oʻtkazilgan test va soʻrovnomalardan foydalanilganligi, olingan amaliy natijalar nazariy konseptual jihatdan yoritib berilganligi, amaliy natijalar miqdoriy koʻrsatkichlar yaʼni matematik-statistik mezonlarning ishonchli metodlari yordamida tahlil qilinganligi, miqdoriy koʻrsatkichlarni psixologik tahlil qilishda ishonchlilik mezonlariga tayanilganligi, xulosalar va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy psixologiya tarixi sohalarining shaxs, milliy psixologiya, shaxslararo munosabat, ijtimoiy motiv, qadriyat, oʻzini oʻzi namoyon etish va roʻyobga chiqarish kategoriyalarini orginal materiallar bilan boyitishi, ularning tub mohiyati, ijtimoiy-psixologik, umumpsixologik omillari, mexanizmi, harakatlantiruvchi kuchi kabilarning yangi qirralari va fenomenlarini ochish, oʻziga xosligi hamda umumiyligi, uygʻunligi va uzviylikini taʼminlash, ularning negizlari, ilmiy manbalarini yoritish, buyuk ajdodlarimizning taʼlimoti va tariqatlarini hamda komil insonning umumpsixologik qiyofasi konsepsiyasini oʻrganishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot ishining materiali va umumlashma xulosalaridan tasavvuf taraqqiyoti bosqichlarini oʻrganishda, oliy oʻquv yurti darslik va qoʻllanmalarini yaratishda, oliy oʻquv yurtlarining tarix, falsafa va psixologiya yoʻnalishi talabalariga Ijtimoiy psixologiya, Etnopsixologiyalardan maxsus kurs, seminarlar tashkil etish, maʼruzalar oʻqishda salmoqli manba vazifasini oʻtash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kubroviya tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik talqinini oʻrganish boʻyicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

barkamol shaxsni baholashning faktorli differensatsiyasi mezonlari vatanparvarlik, haqgoʻylik, adolatlilik, begʻarazlik, sobitqadamlilik sifatlarini shaxs yoʻnalganligiga integrativ rivojlanishi tufayli Kubroviya tariqatidagi umumpsixologik gʻoyalarni shaxs psixik taraqqiyoti qonuniyatlariga simbiozlash asosida dalillanganligiga doir natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-46-sonli buyrugʻi bilan «Ontogenez psixologiyai va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-46a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, tasavvuf taʼlimotida komil, etuk shaxs gʻoyalarini tahlil qilish, darajaviy koʻrsatkichlarni umumlashtirish, tasniflash imkoniyatlari yaratilgan;

shaxsdagi axloqiy ong, axloqiy his, axloqiy tafakkurni psixik taraqqiyotdagi genezisiga koʻra talabalar oʻquv faoliyatidagi ijtimoiy vaziyatlar, topshiriqlarni

o'zlashtirishida yuqori harakatchanlik, sinchkovlik, zukkolik hamda o'zini nazorat qila olish bilan bog'liq sub'ektiv omillarning autoidentifikatsiyada ustuvor xarakterga ega ekanligi tufayli talabalarning ma'naviy ehtiyojlarini psixologik talqin qilish jihatlarini dalillashga doir natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-46-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyai va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-46a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Kubroviya tariqatining mohiyatini, umumpsixologik nuqtai nazardan tahlil qilish, hamda hozirgi davr uchun ahamiyatini ochib berish imkoniyati yaratilgan;

komil inson haqidagi g'oyalarning talabalar shaxs xususiyatlarini shakllanishiga ta'siri natijasida milliy g'oya va mafkuraga sadoqatlilik, nutqiy qobiliyatlik, vaqtni va vaziyatni chamalashdagi mantiqiylik, vaziyatni autent baholash, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivining kuchliligini xulq-atvor konstruktlarida madaniy strategiyalarga simbioz namoyon bo'lishi tufayli ijtimoiy integrativ sifatlarining yuqori darajada rivojlanganligi isbotlanganligiga doir natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-46-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-46a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shaxsning noyob xususiyatlari, ichki imkoniyatlari, fenomenal jabhalari, ularni ro'yobga chiqarishning umumpsixologik omillari, ichki mexanizmlari, harakatlantiruvchi kuchini ochib berish imkoniyati aniqlashtirilgan;

komil insonga xos sifatlar shakllanishida ma'lum bir vaziyatlarni engib o'tuvchi xulq ya'ni matonat, taqdirga ishonch, o'z ustida ishlash xususiyatlarini milliy o'zlikni anglashga integrativ rivojlanishi muhimligi tufayli ijobiy tafakkur va emotsiyalarni nazorat qilish bilan bog'liq subektiv omillar ijobiy ravishda ta'sir etishini dalillashga doir natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 12-avgustdagi PM-46-sonli buyrug'i bilan «Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 14-avgustdagi PM-46a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada komil insonga taalluqli nazariyalarning hozirgi zamon talqinlari bilan qiyoslash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni OAK tasarrufida 1 ta xorijiy, 3 ta mahalliy va 8 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, bulardan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya Kirish, 9 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 bob, boblar bo'yicha xulosalar, tavsiyalar va umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot usullari, ob'yekti va predmeti aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, tadqiqot natijalarining ishonchligi, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Komil inson muammosining psixologik jihatlari**" deb nomlangan bo'lib unda buyuk ajdodlarimiz ta'limotida komil inson kategoriyasining talqini keltirilgan. Jumladan, G'ijduvoni ta'limoti mohiyatining psixologik tahlili, Naqshbandiya ta'limotining psixologik talqini tavsiflab berilgan. Ilmiy-nazariy tahlil asosida komil inson tarbiyalashni talabalar misolida tadqiq etishda psixologik xususiyatlarning o'rni ochib berilgan.

Yurtimizda buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ma'naviy me'ros va ta'limotlariga katta e'tibor qaratilayotganligi tufayli ular tomonidan yaratilgan g'oyalardan oqilona foydalangan holda, barkamol avlodni shakllantirishga tatbiq etish yuksak samaralar berishi mumkin. Bu sohada olimlar tomonidan buyuk ajdodlarimiz to'g'risidagi ma'lumotlar sharqshunoslar, faylasuflar, adabiyotshunoslar, pedagoglar, sotsiologlar hatto psixologlar tomonidan o'rganilib, komil insonga oid tarixiy manbalar, qo'lyozmalar, birlamchi manbalar tahlil etilmoqda.

Tasavvufni ilmiy tadqiq qilish dinshunoslar va tarixchilar, faylasuf va adabiyotshunoslar, ruhshunos (psixolog) va faylasuflarning sa'y-harakatlarini talab qiladigan diniy falsafalar tizimining keng tarmoqli hodisalaridan biri bo'lgan ancha murakkab mavzu. Taniqli tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov ta'kidlaganidek: "Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir".

VIII asr o'rtalarida islom olamida vujudga kelgan tasavvuf ta'limoti musulmon xalqlarining ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va siyosiy hayotida hamda taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, ma'naviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir o'tkazgan tasavvuf (so'fizm) ta'limoti dastlab, zohidlik (tarkidunyochilik – bu dunyo hoyu-havasidan voz kechish) harakati ko'rinishida bo'lib, Bag'dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlarida keng yoyilgan.

Tasavvufda insondagi jamiki xudbinliklar, illatlar, razolat dunyosiga hirs qo'yish, jism ehtiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi, deb o'rgatiladi. Komil inson bo'lish uchun avvalo, jism va nafs ehtiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish kishini nafsiga qul qilib qo'yadi. Darvesh, sufiy nafsni rad etadi. Nafs barcha falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botqog'idan, tubanlik jaridan qutqarib, uni poklashning birdan-bir yo'li nafsning ehtiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muhabbatidan voz kechish va Alloh muhabbatiga ko'ngil bog'lash darkor.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kubroviya ta'limotining vujudga kelishi va rivojlanishi”** deb nomlangan bo'lib, unda Kubroviya ta'limotining o'rganilishi va uning amaliyotga tatbiq etilishi, Najmiddini Kubroning hayoti va ijodiy faoliyati hamda Kubroviya ta'limotining tuzilishi, psixologik tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, Kubroviya tariqatida komil insonni tarbiyalash masalasiga doir chet el psixologlarining ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilishning metodologik jabhalari tahliliy materiallar asosida tushuntirib berilgan.

Najmiddin Kubroning hayoti, sufiylik tariqati va faoliyatiga oid ko'plab tazkiralalar yozilgan. Najmiddin Kubro hayoti va faoliyati Doroshukuxning “Safinat ul-avliyo”, Rizoqulixon Xidoyatning “Riyozi ul-orifin”, Mavlaviy G'ulom Sarvar Sohib Loxuriyning “Xazinag ul-asfiyo”, Xoji Xalifaning “Tuxfat ul - fuqaro”, Abduraxmon Jomiyning “Nafaxot uluns”, Davlatshox Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Sulton Mansur ibn Boyqaroning “Majolis ul-ushshoq”, Mavlono Minxojiddinning “Tabakoti Nosiriy” asarlarida keltirilgan.

Tasavvuf ilmiga katta hissa qo'shgan allomalardan biri turk olimi Mahmud Asad Jo'shon o'zining “Tasavvuf va nafs tarbiyasi” nomli asarida tasavvufning ijtimoiy hayotdagi o'rni, nafs tarbiyasi va barkamol inson xususiyatlari haqida fikr mulohazalar yuritgan va Kubroviya ta'limotiga oid ma'lumotlarni berib o'tgan.

Chet el olimlaridan A.Arberri “Mistitsizm” va ingliz olimi Dj.S.Trimingem “Islom tasavvufi tariqatlari” kitoblarida Kubroviya tariqati, Najmiddin Kubroning hayoti, faoliyati va o'z vatanini himoya qilish yo'lida ko'rsatgan jonbozligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tgan. Ammo Najmiddin Kubroning karomatlari to'g'risida asarda so'z yuritilmagan.


Najmiddin Kubroning “Usul al-ashara” risolasiga falsafa fanlari nomzodi M.Qodirov Abdurahmon Jomiyning shogirdi Abdulg'afur Loriy tomonidan yozilgan bir sharhni – “Odob uz-zokirin”ni, fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi, kitob filologiya fanlari nomzodi M.Safarboev so'zboshisi bilan nashr etildi. Nihoyat, 2004 yilda dissertant adabiyotshunos olim I.Haqqul bilan hamkorlikda Shayxning uch risolasi: “Usul al-ashara”, “Risola ilal hoim” va “Favoyih ul-jamol” asarlarini usmonli turk tilidan o'zbek tiliga o'girib, “Tasavvufiy hayot” nomi bilan nashr ettirdi.

Shu bilan birga ayrim tadqiqotlarda Najmiddin Kubro va u asos solgan tariqat Kubroviylikdagi ayrim masalalar, xususan, falsafiy kategoriyalar nuqtai nazaridan ham o'rganilganini kuzatish mumkin. Inson va uni tarbiyalash, yetuk shaxsni kamolga yetkazish masalasi qadimdan sharq olimlari, mutafakkirlarining diqqat

markazida bo‘lib kelgan. Buyuk olimlar asarlarining o‘ziga xos jihati ilg‘or g‘oyalar, islom va tasavvuf ta‘limoti maslagini birlashtirganligidadir.

Dissertatsiyaning “**Najmiddin Kubroning psixologik qarashlari tahlili va talqini**” deb nomlangan uchinchi bobi Najmiddin Kubro ta‘limotida inson kamoloti darajalarining psixologik tavsifi, Kubroviya talimoti rivojlanish bosqichlarining psixologik talqini, barkamol inson diagnostikasi va dinamikasining mezoniy dasturi yoritilgan.

Tadqiqot jarayonida Najmiddin Kubro (Kubroviya) tariqatida komil inson konsepsiyasining psixologik talqinini o‘rganish uchun E.G‘.G‘oziyev tomonidan ishlab chiqilgan “Barkamol shaxsni baholash” testi, T.D.Dubovskayaning “Vaziyatlarni yengib o‘tish” so‘rovnomasi hamda mualliflik asosida ishlab chiqilgan “Kubroviya tariqati ta‘limoti asosida shaxs kamolotini belgilovchi psixologik kontseptlar haqida tasavvurga egalikni aniqlash” so‘rovnomalaridan foydalanildi.




1-rasm. Barkamol insonni baholash testi natijalari

Shuningdek, muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Kubroviya tariqati ta‘limoti asosida shaxs kamolotini belgilovchi psixologik kontseptlar haqida tasavvurga egalikni aniqlash” so‘rovnomalaridan foydalanilgan. Matematik-statistik mezonlar ya‘ni K.Pirson korrelyatsiya koeffetsienti, foizli tahlil va analizlardan ham foydalanilgan.

Empirik izlanishlarda tadqiqot ob‘yektini sifatida oliy ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar qamrab olinadi. Tadqiqotni amalga oshirishda O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, Toshkent davlat pedagogika universiteti va


O'zbekiston Milliy universitetlarida tahsil oluvchi yuqori bosqich talabalar tashkil etadi.

Shaxsning yo'nalganligi tahlil qilinganda asosan talabalarning vatanparvarlik xususiyati 87%ni tashkil etgan bo'lsa, adolatlilik darajasi 84%ni tashkil etgan. Bundan tashqari haqgo'ylik 83%ni, fidoiylilik 72%ni va beg'arazlik 84%ni, sobitqadamlik 80% ni, insonparvarlik 77% li yuqori natijalarni tashkil etdi. Hamiyatlilik 76%, iymon-e'tiqodlilik 82%, kamtarlik 75% xususiyatlari nisbatan o'rtachadan yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Umumiy olganda "shaxsni yo'nalganligi" bo'yicha barcha ko'rsatkichlar o'rtacha natijalarga asoslangan bo'lib, barqaror ko'rsatkichni qayd etgan.




2-rasm. Barkamol insonni baholash testi natijalari

"Shaxsning umumiy xususiyatlari" tahlil qilinganda bu shkalalarda talabalarning mustaqillikka bo'lgan intilishi yuqoriligi 90% hamda o'zini o'zi boshqarishga bo'lgan intilishi nisbatan yuqoriligi 80% natijalar asosida ko'rinib turibdi. Bundan tashqari muloqotmandlik 80%, tashabbuskorlik 82%, harakatchanlik 75% kabi xususiyatlar keyingi bosqichda namoyon bo'lganligi diagrammalarda o'z aksini topgan. Keyingi bosqichlarda qat'iyatlilik va qulaylikka intiluvchanlik diagrammada o'rtacha ko'rsatkichlar 82% va 88% bilan o'z aksini topgan. Bundan tashqari sinchkovlik xususiyati boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan pastroq 72% natijani qayd etib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan natijalar bir-biriga juda yaqin. Umumiy olganda "shaxsni umumiy xususiyatlar"i bo'yicha barcha ko'rsatkichlar o'rtacha natijani tashkil etgan.




3-rasm. Barkamol insonni baholash testi natijalari

“Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari” tahlil qilinganda bu shkalalarda talabalarning shaxslararo muomalada shaxsiy pozitsiyaga egalik qilishi (80%) natijalar asosida ko‘rinib turibdi. Bundan tashqari o‘zgalarning psixologik xususiyatlari va holatlarini tez ilg‘ashga qobillik (80%), vaziyat qatnashchilari bilan umumiy til topishga zukkolik (84%), xulq, faoliyat va muomalada odoblilik (83%) kabi xususiyatlar o‘rtacha ko‘rsatkichni qayd etganligi diagrammalarda o‘z aksini topgan. Bundan tashqari ilg‘or tajribalarni oson ilg‘ab olishga zehnlilik xususiyati boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan pastroq (68%) natijani qayd etib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o‘tilgan natijalarga ko‘ra “shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari” bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlarni qayd etgan. O‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichni namoyon qilgan.



4-rasm. Barkamol insonni baholash testi natijalari

“Ijtimoiy ta’sir etuvchanlik” xususiyatlari tahlil qilinganda bu shkalalarda milliy g’oya va milliy mafkuraga sadoqatlilik (80%) natijalar asosida ko‘rinib turibdi. Bundan tashqari fikr almashishda nutqiy qobiliyatlilik (82%) ni, ishda va o‘qishda muvaffaqiyatga erishuvda o‘ziga o‘zi ishonch uyg‘otuvchanlik holatlarini tez ilg‘ashga qobillik (80%) kabi xususiyatlar yaxshi ko‘rsatkichni qayd etganligi diagrammalarda o‘z aksini topgan. Umumiy olganda “ijtimoiy ta’sir etuvchanlik” bo‘yicha o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan. Bu ko‘rsatkich yuqoridagi shkalalarga qaraganda birozgina pastroq darajani namoyon qilgan.



5-rasm. Yengib o'tuvchi xulq-atvor so'rovnoma natijalari

Mazkur so'rovnoma bo'yicha olingan natijalar talabalarning ma'lum bir vaziyatlarga nisbatan matonatlik ya'ni yengib o'tuvchi xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, talabalarda so'rovnoma shkalalari quyidagicha natijalarni namoyon qilgan. Sinaluvchilarning taqdirga ishonch 3%, matonat 16% va voqelikni yengib o'tish 18% foiz bilan quyi natijadagi shkalalarni, emotsiyalarni nazorat qilish 37%, ijobiy tafakkur 36%, jamiyatdan qochish 42% va o'zini ayblash 49% bilan o'rta darajani, o'zini o'zgartirish 52%, voqelikni yengib o'tish 56%, taqdirga ishonch 92% va matonat 61% bilan yuqori natijalarni namoyon qilgan.

1-jadval

Kubroviya tariqati ta'limoti asosida shaxs kamolotini belgilovchi psixologik kontseptlar haqida tasavvurga egalikni aniqlash so'rovnomasi ko'rsatkichlari (Foizli tahlil misolida)

Shkalalar	Ahamiyatli ijobiy ko'rsatkichlar (Foiz hisobida)		
	O'ZXIA talabalari	TDPU talabalari	O'zMU talabalari
Kubroviya tariqatining asoschisi kim?	96%	88%	90%
Kubroviya tariqatida insonning komillik sari intilishida qaysi jihatlar ustuvor sanaladi?	89%	75%	72%
Kubroviya tariqatida diniy e'tiqod inson uchun qanday ahamiyat kasb etishini bilasizmi?	93%	87%	82%
Kubroviya tariqatining boshqa tasavvuf tariqatlaridan farqli jihatlarini ko'rsata olasizmi?	81%	63%	67%
Kubroviya tariqatining ta'limotidan yoshlarni ta'lim-tarbiyasida qo'llashda qaysi jihatlarini inobatga olish lozim deb o'ylaysiz?	79%	83%	80%
Kubroviya tariqatidan komil insonni tarbiyalashda qaysi jihatlarini asosiy deb bilasiz?	88%	72%	75%
Kubroviya tariqatida nafs, iymon, e'tiqod (irodaviy sifatlar) kabi tushunchalar qanday izohlangan?	75%	68%	70%
Kubroviya ta'limoti psixologik savodxonlikni oshirishda qanchalik muhim?	63%	74%	69%
Kubroviya tariqatidagi "Komil inson" tushunchasining mazmun - mohiyatini qanday izohlaysiz?	77%	65%	68%
Najmiddin Kubro Haqni qanday anglagan?	70%	56%	51%
Kubroviya tariqatida qaysi jihatlar Yaratuvchi bilan muloqot o'rnatishning vositasi hisoblanadi?	76%	59%	62%
Kubroviya tariqati asosida orttirilgan insoniy sifatlarga qaysi sifatlarni kiritish mumkin?	81%	79%	84%
Kubroviyada qanday odob me'yorlariga rioya qilish zarur hisoblanadi?	74%	63%	66%
Najmiddin Kubroning Tasavvufiy asarlarini o'rganish bugungi kun uchun muhimmi va nimalarga asoslaniladi?	87%	84%	80%
Kubroviya tariqatida ulug'lanadigan qaysi holatlar va xususiyatlar sizga psixologik jihatdan ta'sir etadi?	67%	61%	57%
Kubroviya tariqatidagi diniy hissiyot, taskin va katarsisga oid o'z munosabatingizni bildirsangiz?	74%	79%	68%
Kubroviya tariqati asosida barkamol insonga qo'yiladigan talablarni qanday izohlaysiz?	71%	64%	62%
